



SUN'IY INTELLEKTNING INSON TAFAKKURIGA TA'SIRI: IMKONIYAT VA XAVFLAR

Jurakulova Mexribon Abdumajid qizi

Toshkent shahri, TATU, Kompyuter

Injenerligi fakulteti, Sun'iy intellekt

yo'nalishi, 1-bosqich talabasi

E-mail: mexribonjurakulova2@gmail.com

Ilmiy rahbar: p.f.n., dotsent M.X.Karaxodjayeva

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi sun'iy intellektning inson tafakkuriga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'sirlari o'rganilgan. Ishning maqsadi — zamonaviy (SI) texnologiyalarining insonning qaror qabul qilish, fikrlash va ijodiy faoliyatiga ta'sirini tahlil qilish va muvozanatli yondashuv yo'llarini aniqlashdir. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlar tahlili, so'rovnomalar va statistik kuzatuv metodlari qo'llangan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, SI inson tafakkurini rivojlantirishda katta imkoniyat yaratadi, ammo undan oqilona foydalanilmasa, tafakkur faoliyati susayishi mumkin [1]. Shuning uchun sun'iy intellektni to'g'ri yo'naltirish va inson tafakkurini saqlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Hamda ushbu tezis yosh tadqiqotchilar uchun tushunarli shaklda yozilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, texnologiya, ta'lim, ishlab chiqarish, ommaviy axborot vositalari, tezkorlik, qulaylik, mustaqillik, qobiliyat, imkoniyat.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt SI texnologiyalari jadal rivojlanib, inson hayotining deyarli barcha sohalariga kirib bordi. U ta'lim, tibbiyot, ishlab chiqarish, ommaviy axborot vositalari va kundalik turmushda keng qo'llanilmoqda. SI dasturlari yordamida insonlar murakkab masalalarni bir necha soniyada hal etish, til o'rganish, ijodiy ishlar yozish, dizayn yaratish yoki muloqot qilish imkoniga ega bo'ldilar. Biroq shu bilan birga, sun'iy intellektning haddan ortiq qo'llanilishi inson



tafakkurining o'zgarishiga, mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatining susayishiga olib kelishi [2] mumkinligi haqida fikrlar ko'paymoqda. Shu sababli, ushbu tezisni yozishimizning asosiy maqsadi sun'iy intellektning inson tafakkuriga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'sirlarini tahlil qilish hamda muvozanatli yondashuv yo'llarini aniqlashdan iboratdir.

Bizning maqsadimiz zamonaviy sun'iy intellekt texnologiyalarining inson tafakkuri, qaror qabul qilish va ijodiy fikrlash jarayonlariga ta'sirini o'rganish, ularning ijobiy va xavfli jihatlarini aniqlash. Hamda sun'iy intellekt va inson tafakkuri tushunchalarini ilmiy manbalar asosida tahlil qilish, SI texnologiyalarining ta'lim va axborot olish jarayoniga ta'sirini o'rganish, Inson tafakkurida yuz berayotgan o'zgarishlar — tezkorlik, qulaylik va mustaqillik darajasini baholash, sun'iy intellektdan foydalanish natijasida yuzaga keladigan xavflarni aniqlash, inson tafakkurini saqlash va rivojlantirishda sun'iy intellektni to'g'ri yo'naltirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Sun'iy intellekt bugungi kunda inson tafakkuriga ikki yo'nalishda, ya'ni ijobiy va salbiy ma'noda ta'sir ko'rsatmoqda. Ijobiy tomonlari shundaki SI insonning o'rganish, izlanish, tahlil qilish va tez fikrlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, talabalar SI yordamida murakkab matnlarni tahlil qiladi, ilmiy g'oyalar ishlab chiqadi yoki dasturlashni o'rganadi. Bu jarayon inson tafakkurini yangi bilimlar bilan boyitadi. Salbiy tomonlari esa inson ko'p hollarda tayyor javoblarga tayanib, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammoga ijodiy yondashish qobiliyatlarini yo'qota boshlamoqda. Shuningdek, axborotga haddan ziyod ishonch, "sun'iy ong"ga qaramlik [3] kabi holatlar kuzatilmoqda. Natijada, inson tafakkurining tabiiy rivojlanish mexanizmi — shubha, kuzatish va xulosa chiqarishi — zaiflashayotgani sezilarli darajada aks etyabdi.

Yoshlar orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, 68% talabalar o'quv topshiriqlarini bajarishda SI vositalaridan foydalanganini bildirgan, biroq ularning faqat 27%i bu texnologiyalar yordamida o'z fikrlash doirasi kengayganini



aytgan. Shu sababli SI dan foydalanish madaniyati hali to'liq shakllanmagan. Bunday qaramlikdan uzoqroq bo'lish maqsadida, vaziyatlarni tahlil qilgan holda, sun'iy intellektni to'g'ri yo'naltirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni tafsila etishni maqul ko'rdik: SI vositalaridan foydalanishda inson tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodikalarni ishlab chiqish, o'qituvchilar va talabalar uchun "SI etikasi va fikrlash madaniyati" fanlarini joriy etish, SI texnologiyalaridan foydalanganda ijodiy yondashuvni rag'batlantirish, axborot tanlash, tahlil qilish va ishonchni baholash ko'nikmalarini mustahkamlash.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt inson tafakkurining rivojlanishida katta imkoniyatlar yaratadi, ammo u inson o'rnini to'liq bosa olmaydi. Texnologiyadan oqilona foydalanish insonni yanada kuchli, mustaqil va ijodkor qiladi, aks holda tafakkur faolligini kamaytiradi. Har bir yosh sun'iy intellektdan nafaqat foydalanishni, balki uni to'g'ri boshqarishni, o'z fikrini yo'qotmasdan undan foyda olishni o'rganishi kerak. Inson qudrati va sun'iy intellekt imkoniyatlari qo'shilgan nuqtada taraqqiyot formulasi ishlayotgan bo'ladi [4].

Shunday yondashuvlar inson tafakkuri va sun'iy intellekt o'rtasida muvozanatni [1] ta'minlaydi hamda kelajakda texnologiya emas, insonning o'zi yetakchi bo'lib qolishini kafolatlaydi. Shunday ekan, sun'iy intellekt va o'z taffakuringiz orasida masofa saqlash kerakligini esingizdan chiqarmang. Zero shu orqali biz insonlar boshqa jonli mavjudotlardan farq qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bostrom N. Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. – Oxford University Press, 2014.
2. Karimova N. Inson tafakkuri va sun'iy intellekt o'zaro ta'siri. – Toshkent: "Ziyo" nashriyoti, 2024.
3. Nikolenko O. The Attitude of Young People to the Use of Artificial Intelligence. – E3S. Web of Conferences, 2023.
4. Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги <https://uza.uz>